

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XASANXONOVA NODIRA ISAMETDINOVNA

**BILIMLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING
INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi

**iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
dissertasiyasi avtoreferati myndarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor (DSc)
on economical sciences**

Xasanxonova Nodira Isametdinovna

Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirish..... 3

Хасанхонова Нодира Исаметдиновна

Совершенствование институциональных основ развития экономики знаний..... 33

Khasankhanova Nodira Isametdinovna

Improving the institutional foundations for the development of the knowledge economy..... 63

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro’yhati

Список опубликованных работ
List of published works..... 69

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.I.01.11 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

XASANXONOVA NODIRA ISAMETDINOVNA

**BILIMLAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING
INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi

**iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Iqt469 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nuu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Mambetjanov Qaxramon Qurbandurdievich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Tuxliyev Nurislam**
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Rasulov To‘lqin Sattorovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Murodova Nodira Kulliyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot: **Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.I.01.11 raqamli ilmiy Kengashning 2025 yil _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; (99871) 246-02-24, faks (99871) 246-90-80; e-mail: rector@nuu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100114, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24; (99871) 246-02-24, faks (99871) 246-90-80, e-mail: rector@nuu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati ___ yil _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil --- sentyabrdagi ---raqamli reestr bayonnomasi).

X.P. Abulqosimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Q.Q. Mambetjanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.V. Vahabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bilimlar iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan institutsional o'zgarishlar barqaror iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan mexanizmlar va institutlarni o'zida birlashtirib, turli mamlakatlarda yuqori o'sish tendensiyani belgilab bermoqda. Ammo innovatsion muhitning beqarorligi, so'nggi yillardagi jahon xo'jaligining qutblanishi va yuqori inflyatsiya ko'rsatkichlari iqtisodiyotda inqirozli holatlarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, "2022-2023-yillar oralig'ida ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarga yo'naltirilgan investitsiyalar 2,9 foizga o'sish kuzatilgan bo'lsa, venchur fondi bitimlari 9,5 foizga va xalqaro patent arizalari miqyosi 1,8 foizga pasayish sur'atlarini ko'rsatdi"¹. Bu jahondagi institutsional muhitdagi beqarorlik sharoitida innovatsion sohalarda institutsional asosi, ya'ni ilm-fan yutuqlariga investitsiya kiritish bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan tadqiqotlarni amalga oshirish zaruriyatini asoslab bermoqda.

Jahonda bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarda global muammo sifatida: startaplar vositasida yuqori texnologiyali tarmoqlarning vujudga keltirilishi, venchur kapitaliga asoslangan nanotexnologiyalar hamda mikrochiplar yaratilishi, innovatsion sohalarda robototexnika hamda sun'iy intellektni samarali qo'llash o'rganilmoqda. Jumladan, mamlakatlarning innovatsion sohalarda institutsional asoslarini tashkil etuvchi yuqori samaradorlik darajasi hamda ilm-fan va ishlab chiqarish uzviyligini ta'minlash masalalari tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda 2022-2026-yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning yangi bosqichida bilimlar iqtisodiyotini institutsional takomillashtirishning qator ustuvor yo'nalishlarida ilmiy tadqiqot ishlarini samarali olib borish yuzasidan chora-tadbirlar belgilangan. Mamlakat o'z "taraqqiyot strategiyasi"ga asoslangan o'ziga xos islohotlar sharoitida rivojlanar ekan, ilg'or xorijiy tajriba asosida bilimlar iqtisodiyotini kengaytirish hamda milliy xo'jalik soha va tarmoqlarida "ilmiy maydon"ni yaratish, uni moliyalashtirish va yangiliklarni joriy etish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilab olingan. Ammo, respublikada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari bilan innovatsion soha o'rtasidagi tafovut "...yurtimiz olimlarining texnologik ishlanmalari va ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etishda tarmoqlar tomonidan qiziqishning pastligi mamlakat iqtisodiyotining texnologik rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda va Davlat byudjeti zimmasiga og'ir yuk bo'lib tushmoqda"². Mazkur holat respublikada innovatsion sohalarga mos ilm-fanni o'zgarib borayotgan shart-sharoitlarga moslashtirish va ulardan mamlakat innovatsion t

a Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini q

¹ Global Innovation Index 2024 Unlocking the Promise of Social Entrepreneurship. 17th Edition. WIPO, 2024. – p.27.
² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni.

tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 7-may PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martdagi 128-son “O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³. Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar jahonning etakchi ilmiy markazlarida, jumladan, Jahon banki, Xalqaro intellektual mulk tashkiloti, AQSh milliy ilmiy fondi, BMTning YUNESKO va UNDP tashkilotlari, EBRD (The European Bank for Reconstruction and Development), INSEAD xalqaro biznes maktabi, Kornel universiteti, Moxammed ben Rashida Al Maktum bilimlar Fondi tomonidan o‘rganilmoqda. Tadqiqot muassasalari bo‘lgan Stanford WPUiversity (AQSh), Harvard University (AQSh), University of Wisconsin–Milwaukee (AQSh), University of Oxford (Buyuk Britaniya), The London School of Economics and Political Science (Buyuk Britaniya), Institute for Statistical Studies and Economics of Knowledge (ISSEK – Rossiya Federatsiyasining Bilimlar iqtisodiyoti va statistik tadqiqotlar Instituti), Institut ekonomiki znaniy (Rossiya Federatsiyasi) va boshqa tashkilotlar tomonidan o‘rganilmoqda.

Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish yo‘llarini ishlab chiqish, uning institutsional asoslarini takomillashtirish va ustuvor yo‘nalishlarini belgilashga oid

³ Global Economic Prospects. A World Bank Group Flagship Report. 2025 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street NW, Washington, DC 20433. P.167-171.; World Intellectual Property Report: Making Innovation Policy Work for Development. Geneva: World Intellectual Property Organization. DOI: <https://doi.org/10.34667/tind.49284> P.31-67; <https://www.nsf.gov/>; The EBRD Digital Hub Accelerating the Digital Transition; Global Knowledge Index 2023. United Nations Development Programme Regional Bureau for Arab States (RBAS), One United Nations Plaza, NEW YORK, NY10017, USA, and the Mohammed bin Rashid Al Maktoum Knowledge Foundation, (MBRF), Dubai World Trade Center, DUBAI, 214444, UAE. 3.10-15; HSE Global Cities Innovation Index: 2024/ E.Kutsenko, L.Gokhberg (heads of the authors’ team), V. Boos et al.; ed by L.Gokhberg, E.Kutsenko; National Research University Higher School of Economics. –Moscow: HSE ISSEK, 2025.– 432 p.; Индикаторы инновационной деятельности: 2025 : статистический сборник / В. В. Власова, Л. М. Гохберг, Г. А. Грачева и др.; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». — М.: НИУ ВШЭ, 2025.

jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: institutsional o'zgarishlar sharoitida bilimlar iqtisodiyotida inson kapitali rolining muhimligi isbotlangan (University of Wisconsin-Milwaukee, AQSh); XXI asr "Bilimlar yutug'i"ni T-STEM akademiyalari orqali talabalarni tayyorlash tadqiqotlari orqali takomillashtirish asoslangan (Walden University, AQSh); bilimlarni iqtisodiy siyosatga bo'lgan ta'siri AQSh mamlakati misolida tahlil qilingan (Harvard University, AQSh); oliy ta'lim, innovatsiya va ilm-fanning bilimlar iqtisodiyotini rivojlanishga bo'lgan ta'siri o'rganilgan (Institute for Statistical Studies and Economics of Knowledge, Rossiya Federatsiyasi).

Hozirgi davrda dunyo miqyosida bilimlar iqtisodiyotining institutsional asoslarini takomillashtirish borasida quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ilm-fan va innovatsiyalar tizimini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish; oliy ta'lim tizimiga "Universitet 3.0"ni kiritish; innovatsiyalar rivojlanishida institutsional o'zgarishlarning ta'sirini oshirish yo'llari va mexanizmlarini takomillashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning institutsional asoslari masalalari alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, iqtisodiyotda insonning bilimi to'g'risidagi muammolar ilk bor A.Smit⁴ g'oyalarida uchragan bo'lsa, bilimlar iqtisodiyotining tarixiy taraqqiyoti R.Xippe, R.Foikuet⁵, rasmiy institutlarning bilimlar iqtisodiyotiga ta'sirini A.R.Andres, S.A.Asongu, V.Amavilah⁶, industrial jamiyatda bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish muammolari D.Bell, Dj.K.Gelbreyt, P.Balaji, F.Dreske, U.U.Povell, K.Snellman⁷, bilimlar iqtisodiyotini moliyalashtirish F.Maxlup, G.Bekker, T.Shuls, Dj.Minser, T.Styuart⁸ va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning ayrim amaliy jihatlari MDH mamlakatlari olimlari izlanishlarida ham tadqiq etilgan. Jumladan, bilimlar iqtisodiyoti institutlari N.A.Lavrova, V.T.Smirnov, I.V.Soshnikov, V.I.Romanchin, I.V.Skoblyakova⁹, bilimlar iqtisodiyotining zamonaviy shart-sharoitlari B.3.Milner,

⁴ Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Эксмо, 2016. - с. 255.

⁵ Hippe, Ralph and Fouquet, Roger (2018). The knowledge economy in historical perspective, *World Economics*, 18 (1): 75-107.

⁶ Andrés, A.R., Asongu, S.A. & Amavilah, V. The Impact of Formal Institutions on Knowledge Economy. *J Knowl Econ* 6, 1034–1062 (2015). <https://doi.org/10.1007/s13132-013-0174-3>.

⁷ Bell D. Notes on the Post-Industrial Society // *The Public Interest*. - 1967. №7; Гэлбрейт, Дж. К. Новое индустриальное общество // *The New Industrial State* (1967). 2004. - p. 608. ISBN 5-17-024777-X; Balaji P. The transformation and structure of the high technology industrial complex. California: University of California, 1999; Dreske Fred I. Knowledge and the flow of information. // Stanford: CSLI publ., Cop. 1999.; Powell, W., Snellman, K. (2004). The knowledge economy. *Annual Review of Sociology*, 30, 199–220.

⁸ Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США. -М.: Прогресс, 1966. - с. 23; Беккер Г.С. Человеческое поведение: экономический подход. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. - с. 672. ISBN 5-7598-0173-2; Shulz T.W. Human Capital: Policy Issues and Research Opportunities. – In: *Human resources*. N.Y., 1975. - p. 5.; Mincer J. Investment in Human Capital and Personal Income Distribution // *Journal of Political Economy*, Vol. 66, No. 4 (Aug., 1958), - p. 281-302; Стюарт Т. Интеллектуальный капитал. Новый источник богатства организаций. // Пер. с английского В.Ноздриной. - М.: Поколение, 2007. - с. 31.

⁹ Лаврова Н.А. Ресурсы формирования и развития экономики, основанной на знаниях (институциональный подход) Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Москва-2014. с.26.; Смирнов В.Т., Сошников И.В., Романчин В.И., Скоблякова И.В. Человеческий капитал: содержание, виды, оценка и стимулирование. – М.: Машиностроение-1, 2005. <http://plproject.ru/download/plproject01-04.pdf>.

T.E.Stepanova, M.E.Chensova¹⁰, intellektual kapital ierarxik modellari M.Yu.Shlyaxtin, D.A.Ushanov, E.I.Xayrullina va A.S.Murtazinning¹¹ ilmiy izlanishlarida o'rganilgan.

O'zbekistonda bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishining nazariy jihatlari S.S.G'ulomov, B.Sh.Usmonov, X.P.Abulqosimov, N.Tuxliyev, A.Kremsova¹², inson kapitali rivojlanishining mohiyati va uning amal qilish qonuniyatlari A.V.Vaxabov, Sh.G.Yuldashev, B.N.Navruz-Zoda, B.I.Adizov, K.X.Abduraxmonov, N.K.Zokirova, A.A.Madaliyev, S.R.Xolboyeva¹³, innovatsion ishlanmalarni iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etilishi Sh.Shoxa'zamiy, Z.T.Gaipnazarova, S.M.Buzrukxonov, A.A.Sobirxonov, S.R.Chulliyev, M.I.Samadqulov¹⁴, bilimlar iqtisodiyotining institutsional muhiti

¹⁰ Мильнер Б. З. и др. Управление знаниями в корпорациях. -М.: Дело, 2006. - с. 144.; Степанова Т. Е. Закономерности экономики, основанной на знаниях. – Самара: Изд-во Самар, гос. экон. акад., 2005. -с. 35-36. Ченцова М.В. Особенности формирования экономики знаний в современных условиях. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – М., 2008. - с. 26.

¹¹ Шляхтин М.Ю. Структуризация интеллектуального капитала в экономике знаний. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Ярославль, 2009. - с. 23; Ушанов Д.А. Иерархические и рыночные модели экономики знаний. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – М.: 2009. - с. 25; Хайрулина Э.И. Информационная составляющая экономики знаний. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Казань, 2007. - с. 23; Муртазин А.С. Институциональные основы формирования экономики знаний в России. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – Пенза, 2015. -с. 23.

¹² G'ulomov S.S. 2017-2021-yillarda harakatlar strategiyasini sifatli amalga oshirishda intellektual salohiyat va innovatsiyalar roli // Iqtisodiyot va ta'lim, 2018. 7-19-b.; Usmonov B.Sh. Oliy ta'limning innovatsion faoliyati va uni iqtisodiyot rivojlanishidagi o'rni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. №3, may-iyun 2018 y. 1-13-b.; Abulqosimov X.P. O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishini ta'minlash yo'llari.// Iqtisod va moliya jurnali, 2022, №3 (151). -62-69 - b.; Тухлиев Н., Кремцова А. Энциклопедический справочник. Т.: Гос.науч. изд-во "O'zbekmilliy ensiklopediyasi", 2008. – 250-b.

¹³ Vaxabov A.V. Oliy ta'lim tizimida iqtisodchi xodimlarni tayyorlashni xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari// Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojni baholash va prognozlashtirish (Ilmiy maqolalar to'plami). – Toshkent: 20017. – B. 5-12.; Vaxabov A.V. AQSH oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda endamentlarning o'rni// O'zbekistonda ijtimoiy sohalar menejmentini tashkil etish va rivojlantirish: muammolar, echimlar va istiqbollar: respublika ilmiy-amaliy materiallari to'plami. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 28.11.2015. –360-b.; Юлдашев Ш.Г. Резервы реализации инновационного потенциала как стратегия обеспечения конкурентоспособности национальной экономики. // Современная наука: актуальные проблемы и пути их решения. №11, 2014 г. - с.33-37.; Юлдашев Ш.Г. Узбекистан на пути к инновационной экономике. // Бизнес эксперт. 2015. - с. 32-35.; Navruz-Zoda B.N., Adizov B.I. Bilimlar iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari raqobatbardoshligini oshirishning xorij modellari. // Ilm-fan va innovatsiyalar jurnali. 2023 №1(1). 68-79-b.; Абдурахмонов К.Х., Зокирова Н.К. Человеческое развитие: Учебник. – Т.: ФГБОУ ВПО «РЭУ им.Г.В.Плеханова», 2014. - с. 320.; Madaliyev A.A. Iqtisodiyotni boshqarishda inson omilini faollashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmidan foydalanishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2017. – 28 - b.; Xolboyeva S.R. Iqtisodiy tizimda inson kapitali faoliyatining ilmiy asoslari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2023. – 67 – b.

¹⁴ Шохазамий Ш. Трактат о смарт цифровой республике. Монография. Т.; Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi. 2020. 352-b.; Gaipnazarova Z.T. Innovatsion investitsiyalashtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2012. – 60 - b.; Buzrukxonov S.M. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida oliy ta'limni moliyalashtirishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2022. – 93 – b.; Sobirxonov A.A. Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2024. – 63 - b.; Chulliyev S.R. Innovatsion jarayonlar va venchur kapitali o'rtasidagi bog'liqlikni oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Т.: 2024. – 63 - b.; Samadqulov M.I. Milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatidan samarali

T.T.Jo'rayev, S.Mexmonov, A.Sharipov, J.Jabborova, D.Tojiboyeva, X.Rejapov, Sh.Sh.Zaxidova, M.Xo'jaxonovlarning¹⁵ ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada o'rganilgan.

Biroq, hozirgi kungacha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida O'zbekistonda bilimlar iqtisodiyotining institutsional asoslarini rivojlantirish shart-sharoitlari, omillari va ustuvor yo'nalishlarini chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan kompleks maxsus yo'naltirilgan mustaqil izlanishlar olib borilmagan. Bu esa, mazkur muammoning hozirgi kunda naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi va ushbu mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borish uchun asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F-1-115-raqamli "Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning konseptual asoslarini innovatsion modeliga o'tkazish jarayonlarini jadallashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

bilimlar iqtisodiyotining paydo bo'lishi va shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish orqali uning institutsional asoslari rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

bilimlar iqtisodiyotining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish;

ilmiy tashkilotlarning faoliyat shakllarini aniqlash maqsadida bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishida institutsional muhit va uning o'zgarish tamoyillarini tahlil qilish;

ta'lim xizmatlari institutini bilimlar iqtisodiyotidagi o'rnini tadqiq etish orqali iqtisodiyotning institutsional tuzilmasini nazariy jihatdan asoslash;

bilimlar iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlovchi sohalaridagi institutsional o'zgarishlarni tadqiq qilish asosida ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning hozirgi holatini tahlil qilish;

mamlakatda bilimlar iqtisodiyotiga xizmat ko'rsatuvchi institutlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasini baholash;

bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishda davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

foydalanish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2023. – 66 – b.

¹⁵ Jo'rayev T.T., Mexmonov S., Sharipov A., Jabborova J. Iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. T.: TMI.–2010. 252-b.; Tojiboyeva D. Institutsional muhit yaratish – ilmiy faoliyat va innovatsiyaga motivatsiyani kuchaytirishning asosi.//. "Ilm-fan va innovatsion rivojlanish" ilmiy elektron jurnali. –T.: 2021. №4. 18-29 - b.; Rejapov X.X. Oliy ta'lim va mehnat bozori xizmatlari o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishning metodologik asoslari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Andijon – 2023. 30- b.; Zaxidova Sh.Sh. Universitetlar reytingini oshirish va oliy ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: – 2024. 71- b.; Xo'jaxonov M.X. Oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2024. – 63 - b.

STEAM yondashuvidan foydalangan holda bilimlar iqtisodiyoti uchun institutsional asoslarni yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlash.

O'zbekistonda bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari uchun uzoq muddatli ssenariylar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida bilimlar iqtisodiyoti faoliyat sohasiga oid institutlar tanlab olingan.

Tadqiqot predmetini Respublikada bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirishda yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida umumlashtirish va guruhlash usullari, qiyosiy va dinamik tahlil, tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, statistik tahlil, prognozlashtirish, iqtisodiy-matematik usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, respublikada bilimlar iqtisodiyoti institutlari samaradorligini oshirishga oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sherikchiligi asosida 50/50 nisbatda moliyalashtirish va jarayonning birinchi bosqichida davlat tomonidan infratuzilma yaratish, ikkinchi bosqichida yaratilgan innovatsion tovar va xizmatlarni xususiy sektor tomonidan tijoratlashtirish majburiyatini yuklash orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

neoinstitutsionalizm kontseptsiyasi nuqtai-nazaridan bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishga respublikada innovatsion sohada faoliyat yuritayotgan istiqbolli tadbirkorlik sub'ektlari bazasini shakllantirish, ular tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalar holatini baholashning texnologik auditiga «ekspriment» (TRL:1-3), «kontseptsiya ishlab chiqish» (TRL:4-6) va «tijoratlashtirish» (TRL:7-9) shkalalarini kiritish va ular faoliyatini texnologiya akseleratsiya markazlarini tashkil etish asosida ilmiy-texnik qo'llab-quvvatlash orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

respublikada oliy ta'lim muassasalari (davlat va xususiy) o'rtasidagi raqobat darajasini aniqlash usulini ular faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni qizil ($HHI > 2500$ – monopoliyaga yaqin), sariq ($1500 < HHI < 2500$ - o'rtacha raqobat) va yashil ($HHI < 1500$ - yuqori raqobat) toifalarga ajratish asosida chegaraviy koeffitsientlarni kiritish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishda yoshlar faolligini oshirishga ularning innovatsion g'oyalarini respublikada "Loyiha fabrikalari"ni tashkil etish orqali "tayyor biznes"ga aylantirish va faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'ladigan asosiy kapitalni uzoq muddatli foizsiz lizing asosida berish orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

xususiy sektorda innovatsion faoliyat, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmini ular tomonidan yaratilgan qisqa muddatli (bir yil) va tezkor ilmiy natija beruvchi loyihalarini davlat va xususiy sektor institutlarining "qo'shma moliyalashtirish" tizimini joriy etish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida O'zbekistonda YaIM tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushini oshirishning 2030-yilgacha bo'lgan ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bilimlar iqtisodiyotining vujudga kelishi va rivojlanishining davrlarini tahlil qilish asosida uning evolyusion va revalyusion shakllanish yo'llari asoslab berilgan; respublika mintaqalarida bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishga innovatsion hududlarda istiqbolli tadbirkorlik subyektlari bazasini shakllantirish orqali erishishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

zamonaviy innovatsion salohiyat fan, ta'lim va iqtisodiyotning real sektori integratsiyasini chuqurlashtirish va jadallashtirishda bir qator istiqbolli yo'nalishlarini ajratish asosida O'zbekistonning ilmiy-tadqiqot institutlari zamonaviy ilmiy va innovatsion faoliyatining fundamental tamoyillari taklif etilgan;

O'zbekistonning ilmiy-tadqiqot institutlari zamonaviy ilmiy va innovatsion faoliyatining fundamental tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqilgan;

iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish yo'liga o'tishida va bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasini rivojlantirishda inson kapitali samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan;

bilimlar iqtisodiyotda iqtisodiy tizimning institutsional asosini yanada mustahkamlashga xizmat qiladigan imkoniyatlar STEAM yondashuvi asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy takliflardan mamlakat innovatsion siyosatida ilm-fanni joriy etish salohiyatini baholash va bilimlar iqtisodiyoti mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy apparatni boyitish, respublikada bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish jarayonlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, uni rivojlantirish usullari va modellarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bilimlar iqtisodiyotiga oid maqsadli davlat dasturlarini shakllantirish, innovatsion loyihalar ishlab chiqish, oliy o'quv yurtlarida "Iqtisodiyot nazariyasi", "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi", "Innovatsion iqtisodiyot", "Makroiqtisodiyot", "Inson taraqqiyoti", "Raqamli iqtisodiyot", "Inson resurslarini boshqarish" kabi kurslarning fan dasturlari, o'quv qo'llanma va darsliklarni takomillashtirish hamda ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy takliflar asosida:

respublikada bilimlar iqtisodiyoti institutlari samaradorligini oshirishga oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sherikchiligi asosida 50/50 nisbatda moliyalashtirish va jarayonning birinchi bosqichida davlat tomonidan infratuzilma yaratish, ikkinchi bosqichida, yaratilgan innovatsion tovar va xizmatlarni xususiy sektor tomonidan tijoratlashtirish majburiyatini yuklash orqali erishishga oid nazariy va uslubiy takliflardan 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Государственное регулирование экономики" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 27-dekabrda 448-sonli buyrug'i asosida berilgan №448-09-raqamli darslik guvohnomasi). Mazkur ilmiy natijalardan darslikda foydalanish talabalarda bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishda innovatsion loyihalarni davlat-xususiy sherikchiligi asosida moliyalashtirishning afzalliklari, sohada davlat tomonidan infratuzilma yaratish, innovatsion tovar va xizmatlarni xususiy sektor tomonidan tijoratlashtirishning obyektiv zarurligini to'g'ri va kengroq tushunishlari va ilmiy xulosalar chiqarishlariga imkon yaratgan;

bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishga respublikada innovatsion sohada faoliyat yuritayotgan istiqbolli tadbirkorlik subyektlari bazasini shakllantirish, ular tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalar holatini baholashning texnologik auditiga «eksperiment» (TRL:1-3), «kontsepsiya ishlab chiqish» (TRL:4-6) va «tijoratlashtirish» (TRL:7-9) shkalalarini kiritish va ular faoliyatini texnologiya akseleratsiya markazlarini tashkil etish asosida ilmiy-texnik qo'llab-quvvatlash orqali erishishga oid nazariy va uslubiy takliflardan 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Государственное регулирование экономики" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024-yil 27-dekabrda 448-sonli buyrug'i asosida berilgan №448-09-raqamli darslik guvohnomasi). Mazkur ilmiy natijalardan darslikda foydalanish talabalarda bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishda "texnologik audit", "texnologiya akseleratsiya markazlari" kabi yangi iqtisodiy kategoriyalarning mazmun-mohiyatini to'g'ri va kengroq tushunishlari hamda ularning innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni va rolini ilmiy tahlil qilish va xulosalar chiqarishga imkon yaratgan;

respublikada oliy ta'lim muassasalari (davlat va xususiy) o'rtasidagi raqobat darajasini aniqlash usulini ular faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni qizil ($HHI > 2500$ – monopoliyaga yaqin), sariq ($1500 < HHI < 2500$ - o'rtacha raqobat) va yashil ($HHI < 1500$ - yuqori raqobat) toifalarga ajratish asosida chegaraviy koeffitsientlarni kiritish orqali takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi PQ-108-son "Ma'muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 3-ilovaning III-bo'lim, 8-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 22-oktyabrda 06/33-4-22020-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida oliy ta'lim (davlat va xususiy) tarmoqlari

rivojlanishida raqobatni cheklovchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga erishiladi;

bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishda yoshlar faolligini oshirishga ularning innovatsion g'oyalarini respublikada "Loyiha fabrikalari"ni tashkil etish orqali "tayyor biznes"ga aylantirish va faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'ladigan asosiy kapitalni uzoq muddatli foizsiz lizing asosida berish orqali erishish bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 1b-ilovasi 32-maqсадini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 19-sentyabrdagi 02/17-2746-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida yoshlarga 10 yil muddatga foizsiz lizing taqdim etish asosida "Loyiha fabrikalari" orqali sanoat zonalarida "tayyor biznes" korxonalarini ochishga erishiladi;

xususiy sektorda innovatsion faoliyat, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning institutsional mexanizmini ular tomonidan yaratilgan qisqa muddatli (bir yil) va tezkor ilmiy natija beruvchi loyihalarini davlat va xususiy sektor institutlarining "qo'shma moliyalashtirish" tizimini joriy etish orqali takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024-yil 13-martdagi 128-son "O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining ilovasi 11-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 22-oktyabrdagi 06/33-4-22020-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarida xususiy sektor tomonidan innovatsion faoliyat, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasida qo'shma moliyalashtirish tizimining joriy etilishiga erishiladi;

bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida O'zbekistonda YaIM tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushini oshirishning 2030-yilgacha bo'lgan ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024-yil 13-martdagi 128-son "O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror ilovasining 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 22-oktyabrdagi 06/33-4-22020-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida 2030-yilgacha respublikada YaIMda innovatsion tovar va xizmatlar ulushining sezilarli darajada oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 8 ta ilmiy anjumanlar, jumladan, 3 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 2 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy

attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola, jumladan 11 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismidan iborat. Dissertatsiya hajmi 232 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, mavzu doirasida chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Bilimlar iqtisodiyotini institutsional jihatdan tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlanib, unda bilimlar iqtisodiyotining vujudga kelishi va shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari, uning institutsional asoslarini rivojlanish evolyusiyasi, bilimlar iqtisodiyoti institutlarini shakllantirishning xorij tajribalari o'rganilgan.

Muallif fikricha, bilimlar iqtisodiyotining institutsional asosi - bu iqtisodiyotda bilimlarni yaratish, uzatish va ulardan foydalanish shartlarini belgilovchi institutlar, me'yorlar va qoidalar yig'indisidir. Institutsional asos tarkibiga ilmiy va ta'lim muassasalari, fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat dasturlari, intellektual mulk to'g'risidagi normativ-huquqiy xujjatlar va bilimlarni ishlab chiqarish, tarqatish va ulardan foydalanishga ta'sir etuvchi boshqa vosita va dastaklar kiradi.

Hozirgi kunda bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishiga doir ko'plab ta'limot va nazariyalar mavjud. Ularni muallif ikki guruhga ajratgan (1-rasm).

Revolyutsion nazariya

- F.Maxlup, G.Bekker, F.Xayeklar tomonidan inson kapitali nazariyalari

Evolyutsion nazariya

- Dj.Gelbreyt, D.Bell, E.Toffler, D.Shelestova, M.Chensova, I.Zolotix axborotlashgan postindustrial iqtisodiyot nazariyalari

1-rasm. **Bilimlar iqtisodiyotini institutsional rivojlanish nazariyalari**¹⁶

Birinchi guruh olimlari, jumladan, F.Maxlup, G.Bekker, F.Xayklar inson kapitali nazariyasi orqali bilimlar iqtisodiyotining evolyusion tarzda rivojlanishini ko'rsatib berishgan. F.Maxlup: "Inson jismoniy va aqliy qobiliyatini ko'paytirish

¹⁶ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

natijasida yanada samarali, mukammal mehnat bilan shug‘ullana boshlaydi. Bunday mukammallashuv inson kapitalini tashkil etadi”¹⁷ deb bilimlar iqtisodiyoti bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. Bu bilan u bilimlar iqtisodiyoti jamiyatning intellektuallashishi oqibatida yuzaga kelgan holda kreativ mehnat va innovatsiyalar uning asosini tashkil etib, innovatsion texnologiyalarning jamiyat hayotining barcha tarmoqlarga kirib borishi, jumladan, nano, bio va kognitiv texnologiyalarning jadal rivojlanishi jarayonning tezlashishini nazarda tutadi.

Ikkinchi guruh olimlari, ta‘lim va innovatsiyalarning yuqori sur‘atlar bilan rivojlanishi bilimlar iqtisodiyotida revolyusion yo‘l bilan taraqqiy etishiga olib keldi, deb hisoblaydi. Jumladan, D.A.Shelestova global tarmoq iqtisodiyotini axborotlashgan iqtisodiyot tarkibiga kiritib yuborilishi oqibatida bilimlar iqtisodiyoti yuzaga kelgan¹⁸, deb ta‘kidlaydi. Bu fikr to‘g‘ri, chunki bilimlar iqtisodiyoti XX asrning oxirgi o‘n yilligi va XXI asrning boshlarida uch unsur: postindustrial jamiyat, iqtisodiy axborotlar, global tarmoq iqtisodiyoti nazariyalarining ta‘siri ostida o‘zgarishi¹⁹ tufayli yuzaga kelgan.

Bilimlar iqtisodiyoti muallif fikricha, postindustrial bosqichning yuqori pog‘onasi, raqamli-axborotlashgan jamiyat sifatida qarab, u ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida yangi omillar bo‘lgan: axborot va bilimlar (ilm-fan, intellektual kapital) qo‘shilishi oqibatida vujudga kelgan. Uning shakllanishiga umumiy jihatlar sifatida quyidagilar asos bo‘lgan:

- bilim, ilm-fan, ta‘lim va innovatsiyalar - bilimlar iqtisodiyotining asosi hisoblanadi;

- ishlab chiqarish yuqori texnologiyalarga asoslanishi va o‘z zamonasidan ilgari borishni nazarda tutadi;

- bilimlarni to‘plash, tahlil va sintez qilish asosida yangi g‘oyalar, innovatsiyalar yaratiladi;

- intellektual tovar - uning asosiy mahsuloti hisoblanadi;

- bilimlar iqtisodiyotining mexanizmlari sifatida innovatsion g‘oyalarni moliyalashtirish, joriy etish va bozorga olib kirish hisoblanadi.

Bilimlar iqtisodiyoti - bu oliy ta‘lim muassasalari, ilmiy markazlar, texnoparklar, biznes klasterlari, innovatsion va texnologik markazlar, texnologiyalar transferi tarmoqlari, ixtisoslashtirilgan birjalar va biznes uyushmalari kabi elementlarni birlashtirgan yangi institutsional tizimdir.


Disseratsiya ishining ikkinchi bobi **“Bilimlar iqtisodiyotiga xizmat ko‘rsatuvchi institutlarni amal qilish tamoyillari va ularning namoyon bo‘lish shakllari”** deb nomlangan bo‘lib, unda bilimlar iqtisodiyoti shakllanishiga institutsional muhitning ta‘siri va uning o‘zgarish tamoyillari, ilmiy institutlar va bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda uning nomoyon bo‘lishi, ta‘lim xizmatlari ko‘rsatuvchi institutlarning bilimlar iqtisodiyoti rivojlanishiga ta‘siri yoritib o‘tilgan.

¹⁷ Махлуп Ф. Производство и распространение знаний в США. - М.: Прогресс, 1966. - с. 23.

¹⁸ Шелестова Д.А. Институциональное развитие экономики знаний в современной России. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – В., 2003. - с. 14.

¹⁹ Ченцова М.В. Особенности формирования экономики знаний в современных условиях. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. – М., 2008. - с. 26.

Iqtisodiy siyosat doirasida innovatsion birlashmalar, kichik ilmiy va ishlab chiqarish tuzilmalari, innovatsion sanoat tarmoqlarini tashkil etish orqali ilm-fan va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlari, o‘quv kompleksi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohaslarini, shuningdek, bozor institutlarini birlashtirishga hissa qo‘shadigan ilmiy tadqiqot sohasini, innovatsion sohadagi tadbirkorlik subyektlarini qamrab oladi (2-rasm).



2-rasm. Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning samarali iqtisodiy siyosat vositalari²⁰

2-rasm bilimlar iqtisodiyotining turli jihatlarini qamrab oluvchi institutlarni guruhlarga ajratadi va ularning o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatadi. Ushbu institutlarning samarali faoliyati bilimlar iqtisodiyotining muvaffaqiyati uchun muhimdir. Jumladan, bilimlarni ulashuvchi institutlar bilimlarni yaratish va tarqatishda muhim rol o‘ynaydi. OTMlar kadrlar tayyorlaydi, injiniring va konsalting firmalari tajriba va bilimlarni ulashadi, kutubxonalar esa bilimlarni saqlash va taqdim etish bilan shug‘ullanadi. Bilimlarni ishlab chiqaruvchi institutlar yangi bilimlarni yaratish, tadqiqotlar olib borish va innovatsiyalarni rivojlantirish bilan shug‘ullanadi. Bilimlarni o‘zlashtirish institutlari yangi bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, innovatsiyalarni tijoratlashirish va startaplarni rivojlantirishga yordam beradi. Huquqiy institutlar intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, standartlar va sertifikatlar orqali sifatni ta’minlash, kiberxavfsizlikni ta’minlash orqali bilimlar iqtisodiyotining muhim qismi hisoblanadi. Moliyaviy institutlar esa bilimlar iqtisodiyotini moliyalashtirish manbalarini ta’minlaydi.

²⁰ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan..

Mamlakatda ilmiy-tadqiqot muassasalari soni 118 tani tashkil etib turibdi, ular akademik va tarmoq ilmiy muassasalari, vazirliklar qoshidagi ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa turdagi ilmiy-tadqiqot markazlarini o'z ichiga olmoqda. Ularni 89 tasi Toshkent shahrida, 14 ta Toshkent viloyati, 4 tadan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Samarqand viloyatlarida va qolgan viloyatlarda 1 tadan ilmiy-tadqiqot muassasalari joylashgan²¹.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“O‘zbekistonda bilimlar iqtisodiyoti institutsional asoslarining shakllanish tendensiyasi”** deb nomlangan bo‘lib, unda respublikada bilimlar iqtisodiyoti institutlarning amal qilish mexanizmi, O‘zbekistonda bilimlar iqtisodiyoti institutlari faoliyatining hozirgi holati tahlili va ta’lim hamda ilmiy tadqiqot sohalaridagi institutsional o‘zgarishlar yoritib o‘tilgan.

ITTKIda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modelining qo‘llanilishi - innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu model ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish, tijorlashtirish, va xavflarni bo‘lishish orqali innovatsion faoliyatning rentabelligini oshiradi. Ushbu tadqiqot ishi doirasida muallif bilimlarga asoslangan iqtisodiyotning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish, vujudga kelishidagi muammolarni tadqiq etish, ularni tartibga solishning o‘ziga xos jihatlarini namoyon etish, innovatsion loyihalar amalga oshirishda davlat-xususiy sherikchilik tizimi joriy etish orqali institutsional asoslarini takomillashtirish maqsadga muvofiqligini belgilab oldi. DXSh modelining ikki bosqichi:

1-bosqich (davlat infratuzilmasi): Davlat laboratoriya va sinov bazalarini qurib, uskunalari bilan jihozlaydi. Ushbu bosqichga davlat byudjeti, xalqaro grantlar va davlat-banklari, shuningdek xalqaro moliyaviy tashkilotlar mablag‘lari jalb etiladi. Tashkiliy jihatdan vazirliklar, universitet va ilmiy-tadqiqot markazlari infratuzilmani boshqaradi, litsenziyalash, eksport-sertifikat olish kabi huquqiy tartiblarni amalga oshiradi. Davlat shuningdek, ilmiy kadrlarni tayyorlash va tajriba natijalarini monitoring qilishni ham ta’minlaydi.

2-bosqich (xususiy sektor): Yaratuvchi infratuzilma asosida xususiy kompaniyalar va startaplar innovatsion mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish va bozorga chiqarish vazifasini oladi. Ushbu bosqichda moliyalashtirish asosan xususiy sarmoyalar, bank kreditlari va investorlarning ishtiroki orqali amalga oshiriladi. Tashkiliy masalada xususiy sherik loyiha uchun biznes-reja tuzib, mahsulotni sertifikatlaydi, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi va marketingni tashkil etadi. Davlat esa infratuzilma mulkini nazorat qilib, sarmoyador uchun kafolat va imtiyozlar mexanizmini taklif etadi. Natijada, innovatsion mahsulotlar mahalliy va eksport bozorlariga kirib boradi, ilmiy salohiyat esa iqtisodiyotga qo‘shilgan qiymatga aylanadi.

Muallif tadqiq qilishi doirasida DXShning turli modellari mavjudligi, ulardan BOT (Build-Operate-Transfer, qurish – ekspluatatsiya - topshirish), BOO (Build-Own-Operate, qurish – egalik qilish – ekspluatatsiya), DBFO (Design-Build-Finance-Operate, loyihalash – qurish – moliyalashtirish – ekspluatatsiya) va LDO (Lease-Develop-Operate, ijaraga olish – rivojlantirish – ekspluatatsiya) modellari

²¹ <https://innovation.gov.uz/oz/opendata/post-1475> - Innovatsion rivojlanish agentligi ma’lumotlari asosida.

eng keng tarqalganligini aniqladi. Jumladan, BOT modelida xususiy sherik o‘z mablag‘i hisobidan ob‘ektni qurib, ma’lum muddat undan foydalanadi va muddat tugagach davlatga topshiradi. BOO modelida esa xususiy taraf ob‘ektga egalik qilib, uzluksiz ekspluatatsiya qiladi (topshirish majburiyatisiz). DBFO va boshqa shakllar ham mazkur tamoyillarning turli talqinidir.

ROI (Return on Investment) — bu sarmoyadan qaytariladigan daromad ko‘rsatkichi. U sarmoya kiritish natijasida qancha foyda (yoki zarar) olinganini aniqlash uchun ishlatiladi. ROI sarf qilingan mablag‘ning qay darajada foyda keltirganini ko‘rsatadi. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlangani kabi ROI ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$ROI(\%) = \frac{\text{Foyda (yoki sof daromad)}}{\text{Investitsiya hajmi}} * 100\% \quad (1)^{22}$$

Yuqori ROI = investitsiya samarador bo‘lgan loyiha hisoblansa, past ROI = investitsiya kam foyda keltirgan yoki hatto zararga ishlagan bo‘lishi mumkin

Quyida O‘zbekistonning oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari ishtirokidagi, turli sohalardagi innovatsion DXSh loyihalari tahlili keltirilgan. Loyihalar ta’lim, sanoat, qishloq xo‘jaligi, tibbiyot, energetika va raqamli texnologiyalar sohalari bo‘yicha gruppalangan. Har bir loyihaning DXSh modeli, qisqacha mazmuni, moliyaviy ko‘rsatkichlari va asosiy natija ko‘rsatkichlari bayon etilgan (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekistondagi DXSh asosidagi innovatsion loyihalarning moliyaviy natijalari²³

t/r	Loyiha nomi	Sohasi	DXSh modeli	Investitsiya hajmi (mlrd.so‘m)	NPV	ROI	To‘lov muddati
1	400 o‘rinli talabalar turar joyi	Ta’lim	BOT (DBFO)	25,2	Musbat	8	13
2	Feromon tuzoqlar ishlab chiqarish	Sanoat	BOO	93,3	Musbat	15	6
3	Agroekoturizm va klasterlar	Qishloq xo‘jaligi	LDO		Musbat	15	8
4	Dializ markazlari tarmog‘i	Tibbiyot	BOT	9,85	Musbat	12	7
5	Nur Navoiy 100 MVt FES	Energetika	BOO	110,0	Musbat	12	9
6	“Asl Belgisi” raqamli markirovka	Raqamli texnologiya	BOO	208,4	Musbat	20	5

Mazkur jadvalda O‘zbekistondagi OTM va ITMLar tomonidan amalga oshirilgan real innovatsion loyihalarning moliyaviy natijalari — investitsiya hajmi, NPV, ROI va to‘lov muddati ko‘rsatilgan. Har bir loyiha turli sohalarda (ta’lim, sanoat,

²² Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi.

²³ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

agrar, tibbiyot, energetika va raqamli texnologiyalar) va DXSh modellari (BOT, BOO, LDO) asosida tuzilgan.

Neoinstitusionalizm nazariyasiga ko‘ra, institutlar keng ma‘noda – qonunlar, qoidalar, me‘yorlar, tashkilotlar va qaror qabul qilish tizimlarining majmuidir. Ular o‘zaro bog‘liq qoidalar orqali harakatlanadi va ijtimoiy hamda iqtisodiy faoliyatni normativ-huquqiy ta‘sir bilan tartibga soladi. Innovatsion tizimlarda institutlar (ilmiy markazlar, universitetlar, texnoparklar, patent qonunlari) yangi bilim va texnologiyalarning yaratilishi, sinovdan o‘tkazilishi va tatbiq etilishi uchun muloqot maydonini yaratadi. Yangi institutlar tizimi qaror qabul qilishdagi nomutanosib ta‘sirni va avvalgi yo‘nalishga bog‘liqlikni hisobga olgan holda, tizim ishtirokchilarining har biri uchun aniq pozitsiyalarni belgilaydi. Shuning uchun davlat va xususiy sektor tomonidan yaratilgan qonunlar va muassasalar ayrim guruhlarini qo‘llab-quvvatlab, mablag‘ va resurslarni ma‘lum subyektlarga taqsimlaydi.

Texnologik tayyorgarlik darajasi (TRL) shkalasi – bu texnologiya yoki ilmiy loyihaning rivojlanish darajasini baholash uchun ishlatiladigan tizim. Muallif fikricha mazkur tizimda ishlab chiqilgan ushbu shkala loyihalarni 1 dan 9 gacha bo‘lgan TRL baholari bilan belgilanadi. Masalan, TRL 1 da asosiy prinsiplar kuzatilib, tasdiqlangan bo‘lsa (ilmiy-tadqiqot ishlarining boshlanishi), TRL 5–6 da texnologiya prototipi laboratoriya sharoitida va reallikka yaqin muhitda sinovdan o‘tkaziladi. TRL 9 esa to‘liq tizimning operatsiya muhitida muvaffaqiyatli ishlashini anglatadi. Quyidagi jadvalda TRL bosqichlari keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

TRL bosqichi va uni tavsifi²⁴

TRL bosqichi	Tavsifi
1	Asosiy ilmiy-tadqiqotlar bosqichi (printsipalar kuzatish)
2	Texnologik kontsept yoki dastlabki konsepsiya ishlab chiqish
3	Laboratoriya tadqiqotlari, texnologiya konsepsiyasi isbotlash
4	Laboratoriya muhitida komponentlar va modullar sinovdan o‘tkazish
5	Realga yaqin muhitda tizim (yoki uning asosiy elementlari) sinovdan o‘tkazish
6	Prototip yoki subsistemni haqiqiy muhitda sinovdan o‘tkazish
7	Ishlab chiqarish muhitida to‘liq tizim prototipi namoyish etilish
8	Tizim baholandi, «qisqa sinovdan o‘tgan» va amalga oshirishga tayyor
9	Tizim amalda qo‘llanib ko‘rilgan, to‘liq sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan

TRL shkalasi texnologiyalar va ilmiy ishlanmalarning tayyorlik darajasini aniqlash va investisiyalarni muvofiqlashtirish uchun qo‘llaniladi. O‘zbekistonda ham TRLga asoslangan baholash tizimi joriy etishi, har bir loyiha qaysi bosqichda ekani aniq belgilanib, ilmiy-tadqiqot ishlari, prototip ishlab chiqish yoki tijoratlashtirish kabi mos strategiyalar belgilashiga sabab bo‘ladi. Jumladan, TRL1–3 bosqichidagi ilmiy ishlanmalar uchun grant va laboratoriya infratuzilmasiga e‘tibor qaratilishi, TRL7–9 bosqichidagi ishlanmalarni esa sanoat bilan hamkorlikda sinovdan o‘tkazish va bozorga chiqarish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

²⁴ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda istiqbolli innovatsion tadbirkorlar asosan startap va kichik-yirik ishlab chiqarishdagi innovatsiya loyihalarini ilgari suruvchi subyektlar bo‘lib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, istiqbolli sub’yektlarni aniqlash uchun bir qator mezonlarga tayanish lozim. Bularga quyidagilar misol bo‘la oladi:

Loyiha yangiligi va innovatsion darajasi: texnologiyaning noyoblighi, ilm-fan darajasidagi yutuqlari va uning bozor (yoki ijtimoiy soha)da qo‘shimcha qiymat yaratish salohiyati;

Texnologik tayyorgarlik (TRL darajasi): yuqori TRL egallagan loyihalar (prototip yoki tizim bosqichida) amalda qo‘llanishga yaqin, ular moliyalashtirishda va akseleratsiyada afzal hisoblanadi;

Biznes-reja va bozor istiqbollari: mahsulotning bozorga kirish strategiyasi, iste’molchi talabini aniqlash, eksport salohiyati va daromad olish imkonlari;

Jamoa kompetensiyasi: tadqiqotchi va menejerlarning malakasi, ilgari amalga oshirilgan loyihalar tajribasi va texnik infratuzilmaga ega bo‘lishi;

Ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir: ish o‘rinlari yaratish, ekologik yoki ijtimoiy muammolarni hal qilish kabi qo‘shimcha maqsadlar.

Loyihalarni baholash metodologiyasida ushbu mezonlarga TRL yondashuvi integratsiya qilinadi. Ya’ni, har bir loyiha avval TRL jihatdan baholanib, uni kerakli qo‘llab-quvvatlash bosqichiga yo‘naltirish mumkin. Misol uchun, g‘oya bosqichidagi (TRL 1–2) ishlar yuqori miqdorda ilmiy grant va laboratoriya tajribalari bilan qo‘llab-quvvatlansa, TRL 5–6 bosqichidagi prototip ustida ishlayotgan tadbirkorlar akselerator dasturlariga jalb qilinadi. TRL 7–9 bosqichidagi texnologiyalar esa tijoratlashtirish, investitsiya jalb qilish va keng miqyosda ishlab chiqarishga ko‘maklashish mexanizmlari orqali rivojlantiriladi. O‘zbekiston sharoitida ham Innovatsion rivojlanish agentligi, Texnopark va startap inkubatorlari bu mezonlarni qo‘llab, loyihalarni turli yo‘nalishlarga filtrlaydi va ularga mos grant hamda akselerator dasturlarini taklif etadi.

Dissertatsiya ishining to‘rtinchi bobi **“Respublikada bilimlar iqtisodiyoti institutlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish”** deb nomlangan bo‘lib, bilimlar iqtisodiyotiga xizmat ko‘rsatuvchi institutlarning davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, respublikadagi ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatining samaradorligi hamda O‘zbekistonda bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishda “Loyiha fabrikalari”ning tutgan roli va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlili amalga oshirilgan.

OTMlar (oliy ta’lim muassasalari) uchun Xerfindal-Xirshman indeksi (XXI HHI)ni aniqlash — bu ta’lim bozorida raqobat darajasini baholash usulidir. Bu indeks shunchaki sof raqam emas, balki bozordagi bir qancha OTMlarning qanchalik ustunligi bor yoki raqobatga qarshi ishlayaptimi — shuni aniqlash uchun ishlatiladigan ko‘rsatkichdir. Adabiyotlarda HHI aniqlash formulasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$HHI = \sum_{i=1}^n s_i^2$$

Bu yerda:

s_i — i -OTMning bozordagi ulushi, odatda foizda (masalan, 10% = 10),

n — OTMlar soni.

HHI ning tadqiqoti uchun asos bo‘ladigan qiymat (qizil, sariq va yashil) chegaraviy koeffitsientga ega. Jumladan (3-jadval):

3-jadval.

HHIning natijaviy qiymatlari²⁵

HHI qiymati	Chegaraviy koeffitsient	Talqin
HHI < 1000	Yashil	Past konsentratsiyali bozor. Bunday bozorda ko‘plab ishtirokchilar mavjud bo‘lib, ularning har biri bozorning kichik ulushiga ega. Raqobat yuqori darajada bo‘ladi
1000 ≤ HHI < 1800	Sariq	O‘rtacha konsentratsiyali bozor. Bunday bozorda bir nechta yirik ishtirokchilar mavjud, lekin ko‘plab kichik ishtirokchilar ham faoliyat yuritadi. Raqobat o‘rtacha darajada bo‘ladi.
HHI ≥ 1800	Qizil	Yuqori konsentratsiyali bozor. Bunday bozorda bir yoki bir nechta yirik ishtirokchilar ustunlik qiladi va bozorning katta qismini nazorat qiladi. Raqobat past darajada bo‘ladi

OTMlar bo‘yicha HHI ni aniqlash uchun ma’lumot kerak bo‘ladigan qiymatlar quyidagilar:

- har bir OTMda o‘qiyotgan talabalar soni;
- umumiy talabalar soni;
- har bir OTM uchun:

$$S_i = \frac{\text{OTMdagi talabalar soni}}{\text{Umumiy talabalar soni}} * 100\% \quad (2)^{26}$$

Har bir s_i ni kvadrat qilib, yig‘indisi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2014–2025 yillar davomida oliy ta’lim muassasalari (OTM) soni va ularda ta’lim olayotgan talabalar soni keskin o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bozor konsentratsiyasini baholash uchun har yili OTMlar talaba kontingenti taqsimoti asosida Xerfindal-Xirshman indeksi (HHI) hisoblandi. HHI ko‘rsatkichi har bir OTMning umumiy talabalar soniga nisbatan ulushi kvadratining yig‘indisiga teng bo‘lib, bozor konsentratsiyasi darajasini ko‘rsatadi. Indikatorning qiymati yuqori bo‘lsa, talabalarni qabul qilish bo‘yicha bir necha yirik OTMlar dominantlik qilayotgani, qiymati past bo‘lsa, talaba qabul qilish bozori ko‘p ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlangani ko‘rsatadi.

4-jadval

²⁵ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

²⁶ Muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqildi.

2014-2025 yillar oralig'ida O'zbekistonda faoliyat yuritgan oliy ta'lim muassasalari soni, respublika bo'yicha umumiy talabalar soni hamda hisoblangan HHI ko'rsatkichi²⁷

Yil	OTMLar soni	Umumiy talabalar soni	HHI indeksi
2014	68	261 332	~210
2015	69	264 291	~208
2016	70	268 281	~206
2017	72	297 689	~200
2018	98	360 204	~153
2019	119	440 991	~129
2020	127	571 512	~122
2021	154	808 439	~103
2022	191	1 042 100	~85
2023	213	1 314 542	~75
2024	208	1 500 000 ²⁸	~70
2025	212	1 550 000	~66

4-jadvalda 2014-yildan 2025-yilgacha O'zbekistonda faoliyat yuritgan oliy ta'lim muassasalari soni, respublika bo'yicha umumiy talabalar soni hamda hisoblangan HHI ko'rsatkichi keltirilgan. HHI qiymatlari 0 dan 10 000 gacha bo'lgan shkalada, barcha ulushlar foizlarda olingan holda aniqlangan. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda oliy ta'lim sohasi 2017-yilgacha nisbatan kam o'zgargan bo'lsa-da, 2018-yildan boshlab OTMLar soni va talabalar qamrovi jadal oshib borgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2014-2016-yillarda respublikada taxminan 68-70 ta OTM faoliyat yuritgan bo'lib, umumiy talabalar soni 260-270 ming atrofida bo'lgan. 2017-yilda talabalar soni biroz oshib, 300 mingga yaqinlashdi. Bu davrda HHI qiymati 200 atrofida saqlanib, bozor konsentratsiyasi birmuncha barqaror bo'lgan. Ya'ni, yirik universitetlar talaba qabul qilinishining salmoqli qismini egallab turgan holda, bozorning konsentratsiyalashganlik darajasi o'rtachani tashkil qilgan.

2018-yildan oliy ta'lim tizimida jadal o'sish kuzatildi, ya'ni yangi OTMLar tashkil etilishi natijasida 2018-yil oxiriga kelib OTMLar soni 100 taga yaqinlashdi va umumiy talaba soni 360 mingdan oshdi. Bu holat 2019-yilda ham o'sish davom etib, OTMLar soni 119 taga etdi (bir necha yangi xorijiy filial va nodavlat OTMLar qo'shilgan) va talabalar soni 440 ming nafardan ziyod bo'ldi. Bu o'zgarishlar natijasida bozordagi konsentratsiya pasaya boshladi – 2018 yilda HHI 153 bo'lsa, 2019 yilda 129 ga tushdi.


2020-2021-yillarda oliy ta'lim sohasida qabul kvotalarining oshirilishi natijasida talabalar soni sezilarli darajada o'sdi. Agar 2020-yilda bu ko'rsatkich 571 mingdan ziyod bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib 808,4 ming nafarga etdi. Ayni shu davrda oliy ta'lim muassasalari sonining ko'payishi (2021-yilda 154 taga etdi) bozorda raqobatning kuchayishiga sabab bo'ldi. Xususan, 2021-yilda HHI

²⁷ Muallif xisob-kitoblari asosida ishlab chiqildi.

²⁸ Jadvalda 2024–2025 yillar uchun ko'rsatkichlar taxminiy olindi, mavjud manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga tekislangan holda olingan.

indeksining 103 gacha pasayishi bozorning avvalgi yillarga nisbatan kamroq markazlashganini ko'rsatadi.

2024-yil holatiga ko'ra respublika OTMning bozor ulushini aniqlaganda eng yirik OTMlarning bozordagi ulushi quyidagi natija keldi (3-rasm).



3-rasm. Respublika bo'yicha eng yirik OTMlarning bozor ulushi²⁹

3-rasm tahlilidan ko'rinib turibdiki, respublika bo'yicha hech bir OTM umumiy talabalar sonining hattoki 5 foizdan ortig'iga ega emas. Yuqoridagi diagrammada ko'rinib turibdi, eng yirik 10 ta OTM ham birgalikda bozorning atigi 29 foizini tashkil etadi, qolgan 71 foiz esa boshqa (100 dan ortiq) OTMlarga to'g'ri keladi. Masalan, eng katta ulushga ega Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ham mamlakat bo'yicha talabalar sonining atigi 4.9% ulushini egallagan xolos. Demak, mamlakat miqyosida raqobat juda yuqori – talabalar ko'plab oliy ta'lim muassasalariga taqsimlangan va hech bir OTM bozorni monopol tarzda egallamagani sababli HHI juda past (170). Bu holat ta'lim bozori diversifikatsiyalashgan ekanini, talabalar turli OTMlarni tanlash imkoniyati kengligini anglatadi.

Yoshlar o'z g'oyalarini yaratishi, rivojlantirishi va ularni muvaffaqiyatli biznesga aylantirishi uchun qulay sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. "Loyiha fabrikalari" bu loyihalarni tizimli va ommaviy yaratish, ishlab chiqish va boshqarishga qaratilgan konsepsiya yoki metodologiyadir. U biznes va ITdan tortib, ta'lim va davlat boshqaruvigacha bo'lgan turli sohalarida qo'llaniladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020-yil 22-maydagi 313-sonli "Respublika xududlarida yoshlar texnoparkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ko'rsatilgan vazifalar qatorida "ilmiy-texnik, innovatsion hamda startup

²⁹ Muallif xisob-kitoblari asosida ishlab chiqildi.

loyihalarini amaliyotga joriy etish”³⁰ belgilab olingan. Tadqiqotimiz davomida mazkur texnoparklarda innovatsion loyihalar, startaplarni tahlil qilishga kirishsak.

Innovatsiyalarning yangi ishlanmalarni tashkil etish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish, texnologiyalarni yangilash va transfer qilishda yoshlarni rag‘batlantirishda “Loyiha fabrikalari”ning roli ancha katta bo‘ladi, shu sababli ularda innovatsion loyihalarni o‘rganish maqsadga muvofiq (5-jadval).

5-jadval.

Yoshlar texnoparklarida yaratilgan innovatsion loyihalar va sanoat mahsulotlari soni³¹

Ko‘rsatkich	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Andijon yoshlar texnoparki	-	5/4	12/12	20/1	40/1
Navoiy yoshlar texnoparki	-	-	-	-	3/1
Samarqand yoshlar texnoparki	-	-	2/0	2/1	3/2
Nukus yoshlar texnoparki	-	-	2/2	23	97/23
Sirdaryo yoshlar texnoparki	-	-	-	2/2	54/14
Toshkent viloyati yoshlar texnoparki	6/4	4/4	1/1	1	34
Inno Texnopark MChJ	-	-	45/34	20/1	74/65
Yashnobod yoshlar texnoparki	56/56	87/74	65/62	-	124/112
Jami	62/60	96/82	125/111	68/5	431/117

5-jadval tahlili asosida aytish lozimki, mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgan texnoparklarda 2019-2023-yillar davomida jami bo‘lib 782 ta innovatsion loyiha amalga oshirilib, 375 turdagi sanoat mahsulotlari yaratildi. Yoshlar texnoparklari orasida eng ko‘p loyiha Yashnobod yoshlar texnoparkiga tegishli bo‘lib, 2019-2023-yillar davomida 332 ta innovatsion loyiha asosida 304 turdagi mahsulot ishlab chiqilganligini (o‘sish ko‘rsatkichi innovatsion loyihalarda 221 foiz, sanoat mahsulotlarida 200 foizni tashkil qilgan) ko‘rishimiz mumkin.

Yoshlar texnoparklarida kimyo, mashinasozlik, elektronika, farmatevtika sanoati, qurilish materiallari, qishloq xo‘jaligi hamda tibbiyot sohasida resurstejamkorlik, rentenabellik oshirishga qaratilgan innovatsion g‘oyalar va ishlanmalar amalga oshganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur innovatsion g‘oyalarni asosiy qismi yoshlar tomonidan ilgari surilgan startap loyihalarida aks etgan (6-jadval).

³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 22 maydagi 313-sonli “Respublika xududlarida yoshlar texnoparkini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

³¹ Sobirxonov A.A. Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2024. – 16 - b.

Texnoparklarda yoshlar tomonidan yaratilgan startaplar³²

Ko'rsatkich	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Andijon yoshlar texnoparki	-	45	12	4	40
Navoiy yoshlar texnoparki	-	-	-	-	20
Samarqand yoshlar texnoparki	-	-	8	2	30
Nukus yoshlar texnoparki	-	-	45	32	97
Sirdaryo yoshlar texnoparki	-	-	-	-	54
Toshkent viloyati yoshlar texnoparki	5	9	1	1	34
Inno Texnopark MChJ	-	-	64	12	124
Jami	5	54	130	51	399

6-jadval ma'lumoti shuni bermoqdaki, 2019-2023-yillar oralig'ida jami 639 ta startap loyihalari joriy etilgan bo'lib, ularning asosiy ko'pchilik qismi Inno Texnopark MChJga (2023 yilda yaratilgan jami loyihalarning 31,1 foizi aynan shu korxonaga tegishli) tegishli ekanligini aniqladik. Startap loyihalarini amaliyotga joriy qilinish nuqtai nazardan tahlil qilinganida ham jami 116 ta loyihalardan 44 tasi aynan shu korxonaga (2023 yilda jamidan 38 foizi) tegishli. Bu holat mazkur korxonaga asosan yoshlar startaplarini loyihalashga yo'naltirilganligidan dalolat bermoqda. 2023 yilda 2019 yilga nisbatan yaratilgan startaplar 80 barobarga, ularni amaliyotga joriy qilinishi 116 barobarga ortgan. 2023 yilda yaratilgan startap loyihalarni joriy qilinishi 29 foizni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Mazkur tahlillardan kelib chiqib aytish lozimki, O'zbekistonda joylashgan texnoparklarning o'ziga xos xususiyati ularning hududlarda joylashishi shu hududning potensialidan kelib chiqqan holda amalga oshiriyotganligidan dalolat bermoqda.

Yoshlar tomonidan ilgari surilayotgan "Loyiha fabrikalari"ni tayyor biznesga aylantirish zarurati mavjud bo'lsa va yuqori texnologiyani talab qilinsa uzoq muddatli lizing asosida tashkil etish lozim. O'zbekistonda uzoq muddatli lizing, ya'ni ma'lum bir muddatga mulkni ijaraga olish va shu muddat yakunlanganida mulkni sotib olish imkonini beruvchi moliyaviy xizmatdir. Ularda asosiy kapital bilan ta'minlash muhim hisoblangani sababli nafaqat kredit ajratish balki lizing asosida amalga oshirish muhimdir.

"Loyiha fabrikalari"ni tayyor biznesga aylantirishda lizing asosida moliyalashtirishning afzallik va kamchiliklarini ko'rib o'tish mumkin (7-jadval):

³² Sobirxonov A.A. Sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnoparklardan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2024. – 18 - b.

Yoshlar startaplarini lizing asosida moliyalashtirish³³

Moliyalashtirishning afzalliklari	Moliyalashtirishning kamchiliklari
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik hududlarida investitsiya loyihalarini joylashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi	Hududlarda joylashtirish uchun yosh tadbirkorlik subyekting investitsiya loyihalarini tanlab olish bilan bog'liq qiyinchiliklar
Yoshlar loyihalari uchun moliyalashtirish manbalarini qidirish imkoniyatini pasaytiradi	Lizing bilan bog'liq hisobot va nazorat yuritish tartibi Yosh tadbirkorlar uchun mos kelmasligi
Lizing olishda egiluvchan shart-sharoitlar yaratiladi	Qonunchilik bilan bog'liq qiyinchiliklar
Lizing asosida orttirilgan mablag'larni o'z biznesini rivojlantirishga yo'naltirish imkoniyati	Lizingga olingan asbob-uskunaning narxini o'zgarish holati

7-jadval tahlillari asosida aytish mumkinki, yoshlar startaplarini lizing orqali moliyalashtirish kamchiliklaridan ko'ra bir qancha muhim imkoniyatlarga ega, bu o'rinda yuqoridagilardan tashqari quyidagilarni taqdim etish mumkin:

- moliyaviy to'siqlarni kamaytirish: Yosh tadbirkorlar ko'pincha kerakli asbob-uskunalar yoki resurslarni sotib olish uchun katta miqdordagi kapitalga kirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Lizing ularga ushbu aktivlarga to'liq narxni oldindan to'lashdan ko'ra, foydalanilganda lizing to'lovlarini bo'lib to'lash imkonini beradi;

- likvidlikni boshqarishda yordam: Lizing naqd pul va boshqa kredit resurslarini marketing, biznesni kengaytirish yoki aylanma mablag'lar kabi boshqa strategik ehtiyojlar uchun saqlash imkonini beradi;

- aktivni sotib olish imkoniyati: Lizing muddati tugagach, startap odatda aktivni nominal qiymatga sotib olish imkoniyatiga ega. Bu oxir-oqibat aktivni sotib olishni istagan kompaniyalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, yoshlar startaplarini lizing bilan moliyalashtirish biznesni rivojlantirish uchun zarur resurslarni olishning moslashuvchan va arzon usulini ta'minlaydi, bu esa uning o'sishini tezlashtirishga va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

Dissertatsiya ishining beshinchi bobi "**O'zbekistonda bilimlar iqtisodiyotiga xizmat ko'rsatuvchi institutlar faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlari**" deb nomlangan bo'lib, unda respublikada bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishda davlatning institutsional siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari, mamlakatda bilimlar iqtisodiyotining institutsional asoslarini STEAM yondashuvi asosida takomillashtirish va O'zbekistonda bilimlar iqtisodiyoti institutlari faoliyatini rivojlantirish istiqbollari yoritib o'tilgan.

Institutsional mexanizmlar, ularning samaradorligi, shuningdek, xususiy sektorda innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasidagi muammolar va istiqbollarni tahlil qilish ilmiy-ishlab chiqarish aloqalarini yanada

³³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

mustahkamlash va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifasi hisoblanadi.

Mamlakatda ITTKIlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi jadval ma'lumotlari kelib chiqadi (8,9-jadval):

8-jadval.

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha davlat sektorining ITTKIga xarajatlari
(mlrd. so'm)³⁴**

Ko'rsatkich	Yillar										O'zga-rish (marta)
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami	137,7	166,2	176,8	192,4	218,5	304,1	383,2	432,1	586,5	829,2	6
Davlat byudjeti mablag'lari	100,7	129,3	137,8	144,4	167,3	242,3	322,0	345,8	437,6	525,0	5,2
Byudjetdan tashqari fond mablag'lari	6,2	14,3	16,9	3,4	11,3	22,6	24,7	12,9	78,8	77,3	12,5
O'z mablag'lari	21,1	15,0	12,1	38,1	29,3	30,0	32,8	48,2	43,6	165,5	7,8
Buyurtmachi mablag'lari	9,5	6,3	9,7	6,2	9,4	7,3	3,6	25,2	24,3	57,2	6
Xorijiy manbalar mablag'lari	0,2	1,3	0,3	0,3	1,2	1,9	0,1	-	2,2	4,2	21

8-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, davlat sektorining ITTKIga sarf-xarajatlari 2014-yilga nisbatan 2023-yilda 6 barobarga oshgan. Agar uning tarkibiy jihatidan qaraydigan bo'lsak, har yili tahminan 63-70 foiz atrofida davlat byudjeti xarajatlari tashkil etib turibdi. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirishda davlat sektorining ulushi yuqori bo'lishligi, odatda, katta investitsiyalarni talab qiladigan yirik loyihalar, masalan, mudofaa, aerokosmik, yadro sanoati yoki ilmiy-texnikaviy rivojlanish bo'yicha davlat strategiyalarini amalga oshirish uchun xos bo'lganligi sababidir. Undan tashqari davlat tashkilotlarining o'z mablag'lari tahminan 10-19 foiz atrofida tashkil etmoqda, bu korxonani ichki mablag'larini o'z ehtiyojida tadqiqotlarni moliyalashtirish yo'naltirilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, davlat ITMlariga xususiy buyurtmachilar ham mablag' sarflagani, o'zi uchun zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlariga buyurtmalar berganligini ham ko'rish mumkin. Xorijiy manbalar hisobidan ITTKIga sarf-xarajatlar quyi darajada, sababi xorijiy tashkilotlarning davlat ITMlariga buyurtmalari faqat xalqaro fondlar tomonidan grandlar ajratish asosida moliyalashtirish holatlari kuzatildi.

³⁴ O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat. 2014-2023 yillar statistik to'plamlar asosida tuzildi.

9-jadval.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tadbirkorlik sektorining ITTKIga xarajatlari (mlrd.so'm)³⁵

Ko'rsatkich	Yillar										O'zgarish (marta)
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Jami	80,9	119,1	164,1	176,5	203,4	178,6	307,5	301,0	417,1	256,8	3,2
Davlat byudjeti mablag'lari	11,1	15,2	30,6	28,6	37,1	52,4	79,6	67,9	78,2	5,6	-1,9
Byudjetdan tashqari fond mablag'lari	4,2	-	0,6	7,4	2,8	1,3	0,06	2,3	1,9	0,2	-21
O'z mablag'lari	32,5	63,4	77,5	92,9	147,2	113,3	158,2	204,7	302,8	246,4	7,6
Buyurtmachi mablag'lari	31	37,5	52,2	45,3	16,3	11,5	69,5	25,1	34,2	4,6	6,7
Xorijiy manbalar mablag'lari	2,1	3,0	3,2	2,3	-	0,07	0,08	1,0	-	-	-

9-jadval ma'lumotlarini muallif tahlili bo'yicha umumiy holatda 2014-yildan 2023-yilgacha tadbirkorlik sektorining ITTKIga sarf-xarajatlar darajasining 3,2 barobarga oshganligidan dalolat bermoqda. Tadbirkorlik tarmog'ining ITTKIga sarf-xarajatlar asosan korxonaning o'z mablag'lari (tahminan 70 foiz atrofida) tashkil etganligini ko'rish mumkin. Ammo shu bilan birga, davlat byudjeti va buyurtmachi mablag'lari ham salmoqli darajani tashkil etib turibdi. Xorijiy tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik sohasidagi ITTKIga sarf-xarajatlar uch yil davomida (2018, 2022 va 2023-yillar) amalga oshmaganligini kuzatish mumkin.

Yuqoridagi jadvallar faoliyat sohasi bo'yicha ITTKIni bajargan tarmoqlar qo'shma ravishda davlat va tadbirkorlik (asosan monopollashgan yirik tashkilotlar) ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishga kirishganligini kuzatish mumkin. Bu mamlakat innovatsion faoliyatida muvozanatlashgan ko'rsatkichidir. Ammo, son jihatdan bajarilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari kam, bu jahon miqyosiga raqobatlashish uchun etarli emas. Bunday holat muallif fikricha xususiy sektorda ham aynan fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini joriy etish lozimligiga undaydi.

O'zbekiston sharoitida bilimlar iqtisodiyoti institutlarining faoliyatini rivojlantirish uchun turli modellarni qo'llash muhim. O'zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlariga moslashtirilgan modellar ta'lim va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishda, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashda va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda yordam beradi. O'zbekiston iqtisodiyotida, muallifning fikricha, eng zarur va dolzarb model milliy innovatsiya modeli hisoblanadi, shuning

³⁵ O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat. 2014-2023 yillar statistik to'plamlar asosida tuzildi.

uchun 2010-2023-yillar kesimidagi model o'zgaruvchilari ma'lumotlari shakllantirildi (10-jadval).

10-jadval.

2004-2023-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari³⁶

Ko'rsatkichlar/ yillar	Y. YaIM hajmi (mlrd.so'm)	X1, Korxonalar va tashkilotlar innovatsion mahsulotlar hajmi (mlrd.so'm)	X2, ITTKIga xarajatlar (mln.so'm)	X3, ilmiy- tadqiqot ishlarini bajargan korxonalar soni	X4, ITTKI xodimlar soni
2004	12261,0	935,2	33104,7	109	33614
2005	15923,4	1105,2	38216,16	105	34094
2006	21124,9	1002	46474,78	109	30596
2007	28190,0	1230,2	62018	205	30147
2008	38969,8	1325,1	74042,62	235	32777
2009	49375,6	1660,4	987512	233	36170
2010	78936,6	1849	123761,4	237	36358
2011	103232,6	1348,7	153582,8	259	36173
2012	127590,2	3635,9	197914,1	247	35104
2013	153311,3	4614,7	237635,5	251	35230
2014	186829,5	7043	286498,5	259	35836
2015	221350,9	8023,6	365160,1	267	36839
2016	255421,9	10688,2	440285,2	313	36984
2017	317476,4	18543,3	470938,3	284	36785
2018	424728,7	28871,5	528777,5	456	37185
2019	529391,4	26811,4	602281,4	195	31099
2020	668038,0	31142,8	838633,8	195	30275
2021	820536,6	27378,6	971801,5	179	34614
2022	995573,1	40451,6	1423352,3	181	36742
2023	1204485,4	55746,5	1389221,2	205	36904

Pearson koeffitsiyenti ikki o'zgaruvchi orasidagi chiziqli bog'liqlik kuchi va yo'nalishini o'lchaydi. Korrelatsiya matritsasi esa barcha o'zgaruvchilar juftlari orasidagi Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentlarini jamlaydi. Quyidagi jadvalda YaIM hajmi (Y) bilan mustaqil o'zgaruvchilar (X1–X4) o'rtasidagi bog'liqliklar keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, Y bilan X3 va X4 o'zgaruvchilari orasidagi bog'liqlik juda kuchli: mos ravishda 0.995 va 0.994. Bu YaIM va ushbu ko'rsatkichlar orasidagi deyarli ideal chiziqli munosabatni bildiradi. Boshqa o'zgaruvchilar ham bir-biri bilan yuqori korrelyatsiyaga ega (jadvaldagi qiymatlar 0.97 dan yuqori), bu o'zgaruvchilar orasida kuchli o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi.

Oddiy chiziqli regressiya (OLS) koeffitsiyentlarini aniqlash usuli bo'lib, u mustaqil o'zgaruvchilar va bog'liqli o'zgaruvchi orasidagi chiziqli munosabatni aniqlashga xizmat qiladi. Quyidagi jadvalda YaIM hajmiga (Y) nisbatan X1–X4 o'zgaruvchilarining regressiya koeffitsiyentlari, ularning standart xatolari, t-statistikasi va p-qiymatlari keltirilgan. Model natijalariga ko'ra, modelning aniqlik

³⁶ <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2> O'zbekiston Respublikasi milliy statistika ko'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

darajasi (R^2) 0.998, mos ravishda o‘zgarishlarning 99.8% tushuntirilgan. Adj. R^2 esa 0.997 bo‘lib, bu ham modellar juda yuqori aniqlikni ko‘rsatayotganini bildiradi.

11-jadval.

YaIM hajmiga (Y) nisbatan X1–X4 o‘zgaruvchilarining regressiya koeffitsiyentlari, ularning standart xatolari, t-statistikasi va p-qiymatlari³⁷

O‘zgaruvchi	Ko‘effitsiyent	Std. xato	t-statistik	p-qiymat
Doimiy (bo)	2847.53	7558.45	0.377	0.712
X1: Innovatsion mahsulotlar hajmi (mlrd.so‘m)	6.663	0.990	6.734	<0.001
X2: ITTKIga xarajatlar (mln.so‘m)	-0.200	0.137	-1.461	0.165
X3: Ilmiy-tadqiqot korxonalarini soni	923.016	163.370	5.650	<0.001
X4: ITTKI xodimlari soni	-10.482	8.121	-1.291	0.216
R ²	0.998			
Adj. R ²	0.997			

Jadval natijalariga ko‘ra, innovatsion mahsulotlar hajmi (X1) va ilmiy-tadqiqot korxonalarini soni (X3) koeffitsiyentlari statistik jihatdan ahamiyatli ($p < 0.001$), ya‘ni YaIMni izohlashda sezilarli ta‘sirga ega. Ularning t-statistikalari ham katta (6.734 va 5.650), bu ijobiy bog‘liqlikni tasdiqlaydi. X2 va X4 ning regressiya koeffitsiyentlari uchun esa p-qiymatlar 0.05 dan katta (mos ravishda 0.165 va 0.216) bo‘lib, ular statistik jihatdan ahamiyatli emas. Qolgan o‘zgaruvchilar orasidagi juftliklarda R^2 yuqori, degani model ma‘lumotlarni yaxshi izohlamoqda. Biroq, X2 va X4 uchun koeffitsiyentlarning manfiy yo‘nalishdagi chiqishi ham kuzatilgan, lekin yuqorida qayd etilganidek, bu ta‘sir statistik jihatdan ahamiyatli emas.

Yuqoridagi ko‘p o‘zgaruvchili chiziqli regressiya tahlili natijalariga ko‘ra, YaIM hajmi (Y) bilan X1–X4 o‘zgaruvchilar orasidagi regressiya tenglamasi quyidagicha shakllantiriladi:

$$Y = 2847,53 + 6,663X_1 - 0,200 \cdot X_2 + 923,016 \cdot X_3 - 10,482 \cdot X_4$$

X₁ ning 1 mlrd so‘mga oshishi, o‘rtacha hisobda YaIM hajmiga 6.66 mlrd so‘mlik ijobiy ta‘sir qiladi. X₂ ning 1 mln so‘mga oshishi, YaIMni 0.2 mlrd so‘mga kamaytiradi, ammo bu koeffitsient statistik jihatdan ahamiyatli emas. X₃ ning 1 birlikka oshishi (ya‘ni 1 ta tadqiqotchi korxonaga qo‘shilishi), YaIMni 923 mlrd so‘mga oshiradi. X₄ ning 1 xodimga ortishi YaIMni o‘rtacha 10.48 mlrd so‘mga kamaytiradi,

Modelda multikollinearlik muammosi mavjud bo‘lganligi sababli, 2024–2030-yillar uchun YaIM hajmi manfiy qiymatlar bilan chiqmoqda. Ridge regressiya modeli asosida 2024–2030-yillar uchun prognozlar tuzildi. Ushbu model klassik OLSdan farqli o‘laroq, L2-regularizatsiya orqali ko‘p ustunli bog‘liqlik (multikollinearlik) muammolarini kamaytiradi va aniqroq, barqaror prognozlar beradi.

³⁷ Muallif tomonidan korrelyatsion-regression tahlil asosida ishlab chiqildi.

2024-2030-yillar oralig'ida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari prognozi³⁸

Ko'rsatkichlar/ yillar	Y. YaIM hajmi (mlrd.so'm) Rigde modeli asosida	X1, Korxonalar va tashkilotlar innovatsion mahsulotlar hajmi (mlrd.so'm)	X2, ITTKIga xarajatlar (mln.so'm)	X3, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan korxonalar soni	X4, ITTKI xodimlar soni
2024	1372590,23	63947,73	1572750,33	208,33	39113,66
2025	1550794,73	72148,96	1756279,46	211,66	41323,33
2026	1728999,23	80350,2	1939808,59	215	43532,99
2027	1907203,73	88551,43	2123337,73	218,33	45742,66
2028	2085408,23	96752,66	2306866,86	221,66	47952,33
2029	2263612,73	104953,9	2490396,0	225	50161,99
2030	2441817,23	113155,13	2673925,13	228,33	52371,66

Prognozlar musbat va realistik ko'rinishda chiqdi. YaIM hajmi (mlrd so'mda) yildan-yilga barqaror o'sib bormoqda. Innovatsion faoliyat (X1), ITTKI xarajatlari (X2), tadqiqotchi korxonalar soni (X3), va xodimlar soni (X4) ortib borishi bilan YaIM hajmi ham oshib bormoqda.

XULOSA

Tadqiqot ishida bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirishning institutsional asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq jarayonlarni tahlil etgan holda quyidagi xulosalar olindi va ilmiy takliflar ishlab chiqildi:

1. Bilimlar iqtisodiyoti institutsional asoslari jamiyat taraqqiyotiga qaratilgan ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalardan intensiv o'sishi va rivojlanishiga asoslangan murakkab tizim ekanligini inobatga olgan holda unga ilmiy yondashuvlar asosida quyidagicha ta'rif berildi: "bilimlar iqtisodiyoti institutsional asoslari ilm-fan va inson kapitalini natijasi bo'lib, aholi intellektual mehnati asosida hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan zamonaviy yuqori texnologiyalar va sifatli xizmatlar bilan ta'minlangan tizimdir".

2. Jahon mamlakatlarida bilimlar iqtisodiyoti institutsional tuzilmasi turlicha, ba'zi davlatlarda ma'lum bir hudud, shahar va butun mamlakat miqyosida rivojlangan. Jumladan, AQShdagi Silikon hududi, BAAning Dubay shahri innovatsion hudud yoki shahar sifatida tavsiflanadi, Isroil davlati mamlakat miqyosida bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirgan va sezilarli yutuqlarga erishgan deyish mumkin.

3. Bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishida institutsional muhit asosiy rol o'ynaydi. Buning sababi shundaki, bilimlar iqtisodiyoti axborot, bilim va innovatsiyalarga asoslangan bo'lib, uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun ma'lum shart-sharoitlar va institutlar mavjud bo'lishi kerak.

³⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

4. Muvaffaqiyatli bilim iqtisodiyotini shakllantirish turli institutlar va ishtirokchilar o'rtasida kompleks yondashuv va o'zaro hamkorlikni talab qiladi. Zamonaviy institutsional muhit bilimlarni iqtisodiy foydaga aylantirish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, raqobatbardoshlikni oshirishga va barqaror iqtisodiy o'sishga olib keladi.

5. O'zbekistonda bilimlar iqtisodiyotini joriy etishda barcha hududlarni birday qamrab olish qiyinligi sababli ilmiy infratuzilmalarni ayrim viloyatlar va shaharlarda ularning mavjud salohiyatiga qarab joylashtirish zarur. Mazkur jarayonda universitetlar va ilmiy markazlar o'rtasida samarali aloqalarni shakllantirishga qaratilgan "loyihalar integrasiyasi"ni yanada rivojlantirish.

6. O'zbekistonning strategiyasi va kelajakdagi rivojlanishini belgilab beruvchi asosiy omil bu inson kapitali darajasidir. Innovatsion mahsulotlarni muvaffaqiyatli yaratish uchun mamlakatga yuqori malakali kadrlar kerak. Sababi iqtisodiyotning eskirgan tarmoqlarini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda modernizasiya va diversifikasiya qilish bugungi sharoitda muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

7. Mamlakatda Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilgan bo'lib, u innovatsion faoliyat subyektlari bo'lgan texnoparklar va innovatsion markazlarni moliyalashtirishda 13 ta hududlarda ish olib bormoqda, ularda 2018-2023-yillar davomida 186,52 milliard so'm loyihalar moliyalashtirilgan. Jumladan, Toshkent shahridagi Innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki eng yirik summada (49,5 milliard so'm) moliyalashtirilmoqda, bu mazkur hududda faol ravishda innovatsiyalar yaratishga qaratilgan aqliy ishchi kuchi jamlanganligidan dalolat bermoqda.

8. 2019-yildan 2027-yilgacha bo'lgan davrda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari, jumladan, 1277,1 milliard so'mlik loyihalarni amalga oshirish sur'atlarining tezlashishi kuzatilmoqda. Amaliy loyihalarga katta e'tibor qaratilib, ularga 756 milliard so'm mablag' ajratilgan. Innovatsion loyihalar 164,6 milliardni tashkil etadi va u tajriba-nus'halarni tayyorlash, SMART texnologiyalarini joriy etish va elektron ma'lumotlar bazalarini yaratishga qaratilgan moliyalashtirish mablag'larini o'z ichiga oladi.

9. Ilmiy faoliyat bilan bog'liq davlat dasturlarini moliyalashtirish - ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy infratuzilmani rivojlantirish, mutaxassislar tayyorlash, ilmiy konferensiyalar, fan va texnikani rivojlantirishga qaratilgan boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun davlat byudjeti yoki boshqa manbalar hisobidan mablag'lar ajratish jarayonidir. Bunday moliyalashtirish mamlakatning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratish, shuningdek, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

10. Mamlakatning ilmiy-texnik salohiyati va uning istiqboldagi istiqbollari tahlili mahalliy ilmiy-texnik salohiyatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash zarurligini, shuningdek, ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlari ish yo'nalishlarini belgilashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ilmiy infratuzilmani rivojlantirish samaradorligini oshirish muhimligini ko'rsatadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
№DSc.03/30.12.2019.I.01.11 ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ХАСАНХОНОВА НОДИРА ИСАМЕТДИНОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ОСНОВ
РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ ЗНАНИЙ**

08.00.01 – Экономическая теория

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора наук (DSc) по экономическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2023.2.DSc/Iqt469.

Диссертация выполнена в Национальном Университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на сайте Научного совета (www.nuu.uz) и [Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» \(www.ziynet.uz\)](http://www.ziynet.uz)

Научный руководитель:

Мамбетжанов Кахрамон Курбондурдиевич
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тухлиев Нурислам
Доктор экономических наук, академик

Расулов Тулкин Сатторович
доктор экономических наук, профессор

Муродова Ноди́ра Куллиевна
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

**Ташкентский государственный
технический университет имени Ислама
Каримова**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета за номером DSc.03/30.12.2019.I.01.11 при Национальном университете Узбекистана _____ 2025 года. Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Тел.: (99871) 227-12-24, факс: (99871) 246-02-24, e-mail: rector@nuu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрировано под номером ____). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (99871) 227-12-24, факс: (99871) 246-02-24, e-mail: rector@nuu.uz.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.
(Протокол реестра №__ от «__» _____ 2025 года).

Х.П.Абулкосимов

Председатель научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

К.К. Мамбетжанов

Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

А.В. Вахабов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Институциональные изменения, направленные на создание экономики знаний во всем мире, интегрируют механизмы и институты, направленные на устойчивый экономический рост, определяя высокую тенденцию роста в различных странах. Однако нестабильность инновационной среды, поляризация мировой экономики в последние годы, высокие темпы инфляции создают кризисные ситуации в экономике. В частности, «хотя инвестиции в исследования и разработки увеличились на 2,9% в период с 2022 по 2023 год, объем венчурных сделок сократился на 9,5%, а объем международных патентных заявок сократился на 1,8%»³⁹. Это обосновывает необходимость проведения исследований, направленных на решение проблем, связанных с институциональной основой инновационных секторов, то есть инвестированием в научные достижения, в условиях нестабильности мировой институциональной среды.

В научных исследованиях, направленных на развитие экономики знаний в мире, изучаются глобальные проблемы: создание высокотехнологичных сетей через стартапы, создание нанотехнологий и микрочипов на основе венчурного капитала, эффективное использование робототехники и искусственного интеллекта в инновационных отраслях. В частности, к числу приоритетных направлений исследований относятся вопросы обеспечения высокого уровня эффективности и преемственности науки и производства, составляющих институциональную основу стран в инновационных отраслях.

На новом этапе реформ, реализуемых в Узбекистане в 2022-2026 годах, определены меры по эффективному проведению научных исследований по ряду приоритетных направлений институционального совершенствования экономики знаний. По мере развития страны в контексте собственных реформ на основе «стратегии развития» определены приоритетные направления расширения экономики знаний и создания «научного поля» в секторах и отраслях национальной экономики, его финансирования и внедрения инноваций на основе передового зарубежного опыта. Однако разрыв между научными исследованиями и инновационной деятельностью, осуществляемой в республике «...низкая заинтересованность отраслей во внедрении в практику технологических разработок и результатов научных исследований отечественных ученых тормозят технологическое развитие экономики страны и ложатся тяжелым бременем на государственный бюджет»⁴⁰. Сложившаяся ситуация выдвинула вопросы адаптации достижений инновационной науки республики к изменяющимся условиям и эффективного их использования для ускорения инновационного развития страны в число наиболее актуальных

³⁹ Global Innovation Index 2024 Unlocking the Promise of Social Entrepreneurship. 17th Edition. WIPO, 2024. – p.27.

⁴⁰ Указ Президента Республики Узбекистан УП-№6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года.

проблем современности и показала объективную необходимость дальнейшего усиления научных исследований в этой области.

Диссертационная работа в определенной мере служит реализации задач, поставленных в указах Президента Республики Узбекистан УП-№5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, УП-№6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, УП-№60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, УП-№165 «Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы» от 6 июля 2022 года, УП-№158 «О Стратегии «Узбекистан-2030» от 11 сентября 2023 года, в постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-№3698 «О дополнительных мерах по совершенствованию механизмов внедрения инноваций в отрасли и сферы экономики» от 7 мая 2018 года, ПП-№200 от 3 июля 2023 года «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере высшего образования, науки и инноваций в рамках административных реформ», ПП-№300 «О мерах по качественной и своевременной реализации Стратегии «Узбекистан-2030» в 2023 году» от 11 сентября 2023 года, и в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №128 «О мерах по реализации Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2024-2025 годы» от 13 марта 2024 года.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴¹
Научные исследования, связанные с совершенствованием институциональной базы развития экономики знаний, проводятся в ведущих исследовательских центрах мира, включая Всемирный банк, Международную организацию интеллектуальной собственности, Национальный научный фонд США, организации ООН ЮНЕСКО и ПРООН, ЕБРР (Европейский банк реконструкции и развития), Международную школу бизнеса INSEAD, Корнельский университет, Фонд знаний Мухаммеда бин Рашида Аль Мактума. Также изучением занимаются такие научно-исследовательские институты, как

⁴¹ Global Economic Prospects. A World Bank Group Flagship Report. 2025 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street NW, Washington, DC 20433. P.167-171.; World Intellectual Property Report: Making Innovation Policy Work for Development. Geneva: World Intellectual Property Organization. DOI: <https://doi.org/10.34667/tind.49284> P.31-67; <https://www.nsf.gov/>; The EBRD Digital Hub Accelerating the Digital Transition; Global Knowledge Index 2023. United Nations Development Programme Regional Bureau for Arab States (RBAS), One United Nations Plaza, NEW YORK, NY10017, USA, and the Mohammed bin Rashid Al Maktoum Knowledge Foundation, (MBRF), Dubai World Trade Center, DUBAI, 214444, UAE. 3.10-15; HSE Global Cities Innovation Index: 2024/ E.Kutsenko, L.Gokhberg (heads of the authors' team), V. Boos et al.; ed by L.Gokhberg, E.Kutsenko; National Research University Higher School of Economics. – Moscow: HSE ISSEK, 2025. –432 p.; Индикаторы инновационной деятельности: 2025: статистический сборник / В. В. Власова, Л. М. Гохберг, Г. А. Грачева и др.; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики». — М.: НИУ ВШЭ, 2025.

Стэнфордский университет (США), Гарвардский университет (США), Университет Висконсин-Милуоки (США), Оксфордский университет (Великобритания), Лондонская школа экономики и политических наук (Великобритания), Институт статистических исследований и экономики знаний (ИСИЭЗ РАН), Институт экономики знаний (Российская Федерация) и другие организации.

Результаты глобальных исследований по разработке путей развития экономики знаний, совершенствованию ее институциональных основ и определению ее приоритетов получен ряд научных результатов, в том числе: важность роли человеческого капитала в экономике знаний в контексте институциональных изменений (University of Wisconsin-Milwaukee, США); улучшение подготовки студентов в XXI веке посредством «достижения знаний» основанной на исследованиях в академиях T-STEM (Walden University, США); влияние знаний на экономическую политику было проанализировано на примере США (Harvard University, США); изучено влияние высшего образования, инноваций и науки на развитие экономики знаний (Институт статистических исследований и экономики знаний, Российская Федерация).

В настоящее время во всем мире проводятся исследования по совершенствованию институциональных основ экономики знаний по следующим направлениям: совершенствование механизмов развития системы науки и инноваций; внедрение «Университета 4.0» в систему высшего образования; совершенствование способов и механизмов повышения влияния институциональных изменений на развитие инноваций.

